

GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNING MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Turdiyev Javoxir Xolto'ra o'g'li

javoxirturdiyev437@gmail.com

Tel: +998771174705

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy dunyoda insoniyat duch kelayotgan global muammolar — ekologik, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va texnologik inqirozlarning inson ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari, ma'naviyatning zaiflashish sabablari hamda ma'naviy immunitetni mustahkamlash yo'llari yoritilgan. Muallif inson ma'naviy dunyosi global muammolarning ildizi va ularni hal etish kaliti ekanligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Global muammolar, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, globallashuv, insonparvarlik, ekologiya, texnologiya, axborot makoni, ma'naviy immunitet.

Abstract: This article analyzes the impact of global problems faced by humanity in the modern world - ecological, moral, social, human political and technological developments on the spiritual life. The article highlights the ways in which the globalization process has weakened and weakened immunity, the causes of spiritual damage. The author argues that the spiritual world of man is the root of global problems and the key to their solution.

Keywords: Global problems, spirituality, moral values, globalization, humanism, ecology, technology, information space, spiritual immunity.

Аннотация: В статье анализируется влияние глобальных проблем, с которыми сталкивается человечество в современном мире, — экологического, нравственного, социально-политического и технологического кризисов — на духовную жизнь человека. В статье рассматриваются позитивные и негативные аспекты процесса глобализации, причины ослабления духовности и пути укрепления духовного иммунитета. Автор утверждает, что духовный мир человека является корнем глобальных проблем и ключом к их решению.

Ключевые слова: Глобальные проблемы, духовность, нравственные ценности, глобализация, гуманизм, экология, технологии, информационное пространство, духовный иммунитет.

Kirish. Bugungi kunda insoniyat mislsiz ilmiy-texnik yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, shu bilan birga, o'z hayotini xavf ostiga qo'yayotgan jiddiy global muammolar bilan ham yuzma-yuz turibdi. Iqlim o'zgarishi, ekologik inqiroz, urushlar,

axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, sun'iy intellekt xavflari, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tengsizlik — bularning barchasi insoniyatning ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyatni birlashtirgan bo'lsa-da, u inson ruhiyatiga ham bosim o'tkazmoqda. Bugungi jamiyatda moddiy manfaatlar ko'pincha ma'naviy qadriyatlardan ustun qo'yilmoqda. Bu esa insonlar ongida befarqlik, ma'naviy bo'shliq va hayot mazmunining yo'qolishiga olib kelmoqda. Shunday bir davrda ma'naviyat — insonni, millatni va insoniyatni asrab qoluvchi eng kuchli tayanch bo'lib qolmoqda[1].

Asosiy qism: Global muammolar — bu butun insoniyat taqdiriga daxldor, faqat bir davlat yoki xalq doirasida emas, balki butun sayyora miqyosida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardir. Ular ekologik, ijtimoiy, siyosiy, texnologik va ma'naviy sohalarda namoyon bo'ladi. Bunday muammolarning ildizi insonning o'z qadriyatlariga, tabiatga va boshqalarga bo'lgan mas'uliyatini unutishida yotadi. Bugungi dunyoda eng dolzarb global muammolardan biri bu — ekologik inqirozdir. Tabiat inson hayotining asosi, uning ma'naviy uyg'unligining manbaidir. Ammo sanoatlashuv, ortiqcha iste'molchilik, chiqindilar, iqlim o'zgarishi natijasida tabiatga befarqlik kuchaymoqda. Bu befarqlik insonning ichki dunyosida ham aks etadi. Kimki tabiatni sevmasa, u hayotni, go'zallikni ham qadrlay olmaydi. Shu bois ekologik muvozanatning buzilishi nafaqat jismoniy, balki ma'naviy inqirozni ham keltirib chiqarmoqda[2].

Yana bir muhim muammo — axborot va texnologik xavfdir. Bugun inson ongiga turli axborotlar soniyasiga minglab oqimlarda kirib keladi. Ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, virtual haqiqatlar odamni real hayotdan uzoqlashtirib, uni o'z "raqamli olami"ga bog'lab qo'ymoqda. Buning oqibatida inson tafakkuri yuzaki, hissiyati esa beqaror bo'lib bormoqda. Har bir yangilik, surat yoki "trend" inson fikrini boshqarish vositasiga aylanmoqda. Bu esa insonni o'z fikriga ega bo'lmagan, "ma'naviy iste'molchi" holatiga tushirib qo'yadi. Texnologiya o'z-o'zidan yomon emas, ammo u insonni boshqaruvchi emas, inson uchun xizmat qiluvchi bo'lishi kerak. Agar inson texnologiyaning quliga aylansa, u o'z ma'naviyatini yo'qota boshlaydi. Shu sababli har bir jamiyat raqamli rivojlanish bilan bir qatorda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ham rivojlantirishi zarur. Shuningdek, urushlar, mojarolar va zo'ravonlik insoniyat ma'naviy hayotiga eng katta zarur bo'lmoqda. XXI asrda insonparvarlik, tinchlik va adolat haqida ko'p so'z yuritilayotgan bo'lsa-da, dunyoning turli nuqtalarida urushlar davom etmoqda. Har bir urush inson qalbida g'azab, qo'rquv, nafrat kabi salbiy tuyg'ularni uyg'otadi. Bu tuyg'ular avloddan avlodga o'tib, jamiyat ruhiyatini buzadi. Shu bois urush va zo'ravonlik nafaqat siyosiy, balki ma'naviy fojia hamdir[3].

Global muammolarning yana biri — axloqiy qadriyatlarning yemirilishidir. Bugungi dunyoda ko'plab yoshlar uchun moddiy farovonlik, "trend", mashhurlik, boylik eng muhim maqsadga aylangan. Buning natijasida mehnatga hurmat,

vatanparvarlik, halollik, ota-ona roziligi, shukronalik kabi qadriyatlar orqa planga surilmoqda. Bu jarayon jamiyatni ichdan yemiradi. Inson o'z qadriyatini yo'qotsa, u o'zligini ham yo'qotadi. O'zbekiston misolida olib qaraganda, davlat siyosati darajasida ma'naviyatni mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekiston – ma'naviy yuksalish sari" g'oyasi ana shunday maqsadga xizmat qiladi. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy qadriyatlar, insonparvarlik, ekologik va axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Chunki global muammolarga qarshi eng samarali kurash vositasi bu — ma'naviy immunitetdir[4].

Ma'naviy immunitet — bu insonni turli yot g'oyalar, buzg'unchi mafkuralar va ma'naviy zaiflikdan himoya qiluvchi ichki kuchdir. U tarbiya, oila, ta'lim, din va madaniyat orqali shakllanadi. Ma'naviy immuniteti kuchli jamiyatni hech qanday tashqi tahdid larzaga keltira olmaydi. Shuning uchun har bir davlat, har bir inson ma'naviyatni o'z hayotining markaziga qo'yishi zarur. Bugungi dunyo ilmiy-texnik jihatdan qanchalik rivojlanmasin, inson ruhiyati zaiflashayotgan bir paytda, ma'naviy qadriyatlar qayta tiklanmas ekan, global muammolarning ildizini kesish mushkul bo'ladi. Shuning uchun ham har bir inson o'zidan boshlashi kerak — tabiatga mehr, boshqalarga hurmat, halollik, tinchliksevarlik va adolatparvarlik insonning eng yuksak ma'naviy belgilaridir[5].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, global muammolar insoniyatning faqat tashqi hayotiga emas, balki ichki dunyosiga, ma'naviyatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ekologik inqiroz tabiat bilan uyg'unlikni yo'qotmoqda, texnologik bosim insonni sun'iy hayotga bog'lamoqda, urushlar insonparvarlikni so'ndirmoqda, axloqiy zaiflik esa jamiyatni yemirmoqda. Bularning barchasiga qarshi kurashishning yagona yo'li — ma'naviyatni mustahkamlash, inson qalbida yaxshilik, mehr, mas'uliyat va vijdonni uyg'otishdir. Demak, insoniyat o'zini asrab qolish uchun texnik taraqqiyotdan ko'ra, ma'naviy uyg'onishga ko'proq e'tibor qaratishi lozim. Chunki ma'naviy barkamollik — bu global muammolarni yengishning yagona kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. To'xtaboyev A. Globallashuv va ma'naviyat muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. Mahmudov B. Axborot makonida ma'naviyatni himoya qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2020.
5. Xolmatov M. Ekologik muammolar va inson ma'naviyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
6. Yusupov B. Inson va globallashuv: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi haqidagi nutqlari. – www.president.uz